

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

B. KATTAKISHIYEV,

I. MAMAYUSUPOV

STRATEGIK MENEJMENT

(PRAKTIKUM)

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus
ta‘lim vazirligi tomonidan o‘quv qo‘llanma sifatida
tavsiya etilgan*

TOSHKENT – 2008

B. Kattakishiyev, I.Mamayusupov. Strategik menejment fanidan praktikum. – T., «Fan va texnologiya», 2008, 232 bet.

Bozor iqtisodi sharoitida faoliyat ko'rsatayotgan har bir firmaning o'ziga xos boshqarish nuqtayi nazari bor. Tashqi muhit ta'siri, ichki bo'lim va bo'linmalaridagi turli jarayonlar, yechim qabul qilishlar, kommunikatsiya boshqaruv apparatiga ta'sir ko'rsatadi. Aynan shu kabi hodisalarni va ularning talqinini o'z ichiga olgan «Strategik menejment» fanidan olingan nazariy bilimlarni mustahkamlashda talabalarga yordam beradigan amaliy mashg'ulotlar o'tkazish uchun ushbu qo'llanma ishlab chiqilgan.

Ushbu qo'llanma Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarining «Menejment» yo'nalishidagi talabalarga mo'ljallangan bo'lib, rahbarlik va menejerlikka qiziquvchilar ham undan foydalanishlari mumkin.

Taqrizchilar:

K.B. G'aniyev – iqtisod fanlari doktori, prof., Samarqand Davlat arxitektura-qurilish instituti kafedra mudiri;

T. Qayumov – iqtisod fanlari nomzodi, dotsent, Jizzax Mintaqaviy biznes maktabi.

ISBN 978–9943–10–133–3

© «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2008.

MUQADDIMA

XX asrning so'nggi 10-15 yili mobaynida sayyoramizda, xususan, O'zbekistonda jahonshumul ahamiyatga molik bir qator ijtimoiy-siyosiy voqea va hodisalar yuz berdi. Kuchli mafkura va rejali tizimga tayangan «sotsializm» tuzumining barham topishi bu boradagi eng muhim va ahamiyatli voqeadir. Buning oqibatida dunyoda tamomila o'zgacha yangi geografik-siyosiy vaziyat shakllandiki, jahon hamjamiyatida tub o'zgarishlarga sabab bo'ldi.

Hozir ko'plab firma va korxonalar tashkil etilmoqda, iqtisodiy islohotlar jadallashib chuqurlashmoqda. Shu bilan birga biznesning xususan, kichik biznesning, rivojlanishi shu kunda ko'ngildagidek emas. Ko'plab firmalar biznes bilan shug'ullanish ko'nikmalari va marketing tajribalari yetishmasligi, shuningdek, yetarlicha o'ylab ko'rilmagan biznes rejalar va loyihalarni amalga oshirishga urinishlari tufayli omadsizlikka uchrab, barbod bo'lmoqda. Chunonchi, bozorni shoshilinch va yuzaki o'rganib va xaridorgir bo'lib turganligi uchungina bozorga chiqarilgan tovarlarni ishlab chiqara boshlaydigan tadbirkorlar ham uchraydi. Biroq ular kutganlariday foydani ololmagach, boshlovchi biznesmenlar ishlab chiqarishni to'xtatib qo'yadilar.

Ma'lumki, har qanday tashkilot muvaffaqiyatini unda faoliyat ko'rsatayotgan kishilarning tayyorgarligi, xohishi, ishbilarmonligi va tadbirkorligi ta'minlaydi. Yangi sharoitda mutaxassis tayyorlaydigan muassasalar bozor iqtisodiyoti qo'yadigan masalalarni yecha oladigan, menejmentning iqtiso-

diy mexanizmiga oid bilimlarni to'la egallagan xodimlar yetishtirishlari lozim. Bo'lajak menejerlar texnologik ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish, tijorat (xarid qilish, sotish va almashtirish), moliyaviy (mablag' topish va oqilona foydalanish) va xavfsizlik (aholining mulkini muhofaza qilish) faoliyatlari, ekkaunting (tahlil qilish, hisobga olish va statistika) hamda boshqarish (rejalashtirish, marketing, tashkil etish, taqsimlash, muvofiqlashtirish va nazorat) faoliyatlarini amalga oshirish ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim.

Ma'lumki, «**strategik menejment**» atamasi o'tgan asrning 60–70-yillarida yuqori pog'onada amalga oshiriladigan boshqarishni ishlab chiqarish darajasidagi boshqarishdan farqini ifodalash uchun kundalik hayotga kirib keldi. Kasbiy faoliyat xo'jalik yuritishning barcha pog'onalarida boshqarishning qonunlari, tamoyillari, tashkiliy tuzilmalari va munosabatlari to'g'risida nazariy bilimlar beruvchi juda ko'p darsliklar yaratilgan. Lekin bozor iqtisodiyoti sharoitida faoliyat ko'rsatadigan har bir firmaning ichida o'ziga xos nuqtayi nazari bor. Tashqi muhit ta'siri, ichki bo'lim va bo'linmalardagi turli jarayonlar, me'yorlar, yechim qabul qilish, kommunikatsiya boshqaruv apparatiga ta'sir ko'rsatadi. Aynan shu kabi hodisalarni va ularning talqinini o'z ichiga olgan, «**strategik menejment**» fanidan olingan nazariy bilimlarni mustahkamlashda talabalarga yordam beradigan amaliyot darslari uchun o'quv qo'llanmalari bo'yicha taqchillik sezilmoqda.

Ko'pincha, yaxshi nazariyadan amaliyot foydaliroq degan gaplarni eshitib qolamiz. Bu bizningcha, juda ham to'g'ri. Chimki har qanday nazariy fikr amaliyot bilan mustahkamlanmasa, u holda nazariyaning keragi bo'lmay qoladi.

Ushbu qo'llanma «**Strategik menejment**» fanidan amaliyot mashg'ulotlari o'tkazish uchun mo'ljallangan bo'lib, o'quv qo'llanmani tayyorlashda akad. S. G'ulomovning «**Menejment asoslari**», O.S. Vixanskiyning «**Стратегическое**

управление» hamda D.Kempbellning «Стратегический менеджмент» kitoblaridan keng foydalanildi.

Mualliflar ushbu qo'llanmani sahifalashda va rasmiylashtirishda yaqindan yordam bergan talabalar Shuhrat Alimbekov va Muhiddin Muhammadov hamda Jizzax politexnika instituti qoshidagi biznes maktabi dotsenti T. Qayumovga chuqur minnatdorchilik izhor qiladilar.

Mualliflar ushbu qo'llanma yuzasidan bildirilgan taklif, mulohaza va tanqidiy fikrlarni minnatdorchilik bilan qabul qiladilar.

Bizning manzilimiz: Jizzax shahri, Xalqlar Do'stligi shoh ko'chasi, Jizzax politexnika instituti, «Iqtisodiyot va menejment» kafedrası.